



UDK: 37.013:811.512.133

**Maftuna FAYZIYEVA,**

*A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti mustaqil tadqiqotchisi*

*E-mail: mfayziyeva33@gmail.com*

*O'zMPU universiteti dotsenti, PhD N.Ahmedova taqrizi asosida*

## TA'LIM MAQSADLARINI LOYIHALASHTIRISHDA ZAMONAVIY VA USTUVOR MEZONLARLARNING AHAMIYATI

Аннотация

Mazkur maqolada ta'lim maqsadlarini loyihalashtirishning zamonaviy yondashuvlari, ularning nazariy asoslari hamda amaliy qo'llanilish imkoniyatlari tizimli ravishda tahlil qilinadi. Ta'lim jarayonida bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni samarali shakllantirish ta'lim maqsadlarining aniq belgilanishi, mantiqiy izchilligi, o'lchovliligi va ilmiy asoslanganligiga bevosita bog'liq ekanligi asoslab beriladi. Tadqiqot doirasida ta'lim maqsadlarini loyihalashtirish zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan uyg'un holda kutilayotgan natijalarga erishishni ta'minlovchi samarali "yo'l xaritasi" sifatida talqin etiladi. Maqolada kompetensiyaviy yondashuv, Bloom taksonomiyasi, natijaga yo'naltirilgan ta'lim (outcome-based education) va integrativ yondashuv kabi ustuvor metodologik asoslar tahlil qilinadi. Ingliz tilini o'qitish misolida ta'lim maqsadlarini to'g'ri va puxta loyihalashtirish o'quvchilarning til ko'nikmalari (tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirish) hamda kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda muhim omil ekanligi ochib beriladi. Izlanish natijalari shuni ko'rsatadiki, ta'lim maqsadlarini zamonaviy talablar, mehnat bozori ehtiyojlari va xalqaro ta'lim standartlari asosida loyihalashtirish pedagogik jarayonning sifatini oshiradi, o'qitish samaradorligini kuchaytiradi hamda ta'lim natijalarining barqarorligini ta'minlaydi. Maqola natijalari ta'lim muassasalari, o'qituvchilar va metodistlar uchun amaliy tavsiyalar berish bilan ahamiyatlidir.

**Kalit so'zlar:** ta'lim maqsadlari, loyihalashtirish, kompetensiyaviy yondashuv, ta'lim texnologiyalari, ta'lim sifati, samaradorlik, ingliz tili, natijadorlik.

## ВАЖНОСТЬ ОВРЕМЕННЫХ И ПРИОРИТЕТНЫХ КРИТЕРИЕВ ПРИ ПРОЕКТИРОВАНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ЦЕЛЕЙ

Аннотация

В данной статье систематически анализируются современные подходы к разработке образовательных целей, их теоретические основы и возможности практического применения. Утверждается, что эффективное формирование знаний, навыков, квалификаций и компетенций в образовательном процессе напрямую зависит от четкого определения, логической последовательности, измеримости и научной обоснованности образовательных целей. В рамках исследования разработка образовательных целей интерпретируется как эффективная «дорожная карта», обеспечивающая достижение ожидаемых результатов в соответствии с современными образовательными технологиями. В статье анализируются такие приоритетные методологические основы, как компетентный подход, таксономия Блума, образование, ориентированное на результаты, и интегративный подход. На примере преподавания английского языка показано, что правильная и тщательная разработка образовательных целей является важным фактором в развитии языковых навыков учащихся (слушание, чтение, письмо и говорение) и коммуникативной компетенции. Результаты исследования показывают, что разработка образовательных целей на основе современных требований, потребностей рынка труда и международных образовательных стандартов повышает качество педагогического процесса, увеличивает эффективность обучения и обеспечивает устойчивость образовательных результатов. Результаты статьи имеют важное значение для предоставления практических рекомендаций образовательным учреждениям, преподавателям и методистам.

**Ключевые слова:** образовательные цели, проектирование, компетентный подход, образовательные технологии, качество образования, эффективность, английский язык, результативность.

## THE IMPORTANCE OF MODERN AND PRIORITY CRITERIA IN DESIGNING EDUCATIONAL GOALS

Annotation

This article systematically analyzes modern approaches to designing educational goals, their theoretical foundations and practical application possibilities. It is argued that the effective formation of knowledge, skills, qualifications and competencies in the educational process directly depends on the clear definition, logical consistency, measurability and scientific validity of educational goals. Within the framework of the study, the design of educational goals is interpreted as an effective "roadmap" that ensures the achievement of the expected results in harmony with modern educational technologies. The article analyzes such priority methodological foundations as the competency-based approach, Bloom's taxonomy, outcome-based education, and the integrative approach. Using the example of English language teaching, it is revealed that the correct and thorough design of educational objectives is an important factor in the development of students' language skills (listening, reading, writing, and speaking) and communicative competence. The results of the study show that designing educational goals based on modern requirements, labor market needs, and international educational standards improve the quality of the pedagogical process, enhances teaching efficiency, and ensures the sustainability of educational outcomes. The results of the article are significant in providing practical recommendations for educational institutions, teachers, and methodologists.

**Keywords:** educational goals, design, competency-based approach, educational technologies, educational quality, efficiency, English language, effectiveness.

**Kirish.** So'nggi yillarda globallashtirish jarayonlari, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar ta'lim jarayoniga bo'lgan talablarni tubdan o'zgartirdi. Endilikda ta'limdan ko'zlangan asosiy maqsad o'quvchilarni faqat nazariy bilimlar bilan qurollantirish emas, balki ularni real hayotiy vaziyatlarda mustaqil faoliyat yurita oladigan, muammolarni tahlil qila oladigan va ijodiy yondashuvga ega shaxs sifatida shakllantirishdan iboratdir. Mazkur vazifalarni amalga oshirish ta'lim maqsadlarini to'g'ri, aniq va ilmiy asosda loyihalashtirishni talab qiladi. Chunki ta'lim maqsadlari o'quv jarayonining yo'nalishini belgilovchi markaziy omil bo'lib, dars mazmuni, metodlari, shakllari hamda baholash tizimi bilan bevosita bog'liqdir. Ayniqsa, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan zamonaviy ta'lim tizimida ta'lim maqsadlarini loyihalashtirish masalasi dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu sababli ushbu maqolada ta'lim maqsadlarini loyihalashtirishning nazariy asoslari, zamonaviy va ustuvor mezonlari hamda ularning ta'lim amaliyotidagi ahamiyati keng yoritiladi.

**Mavzu bo'yicha adabiyotlar sharhi.** Ta'lim maqsadlarini loyihalashtirish sharq va g'arb olimlari tomonidan yetarlicha muhokama qilingan, chunki u ham o'qituvchi, ham o'quvchi faoliyatining o'zagidir. Ta'lim maqsadlarini loyihalashtirish ayniqsa, chet tilini o'rganishda qisqa va umumli natijaga asoslanib, tushunish, tahlil qilish, sharhlashdan tashqari, o'quvchini chet tilida bimalol ijodiy faoliyat olib borish, kognitiv bilim hosil qilish va o'qituvchi faoliyatini osonlashtirish kabi ko'plab ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Y.S.Aleksandrova [1] ga ko'ra, ta'lim maqsadlarini loyihalashtirish umumta'lim maktab ingliz tili o'qituvchilarga ta'lim jarayonini oldindan rejalashtirish, maqsadlar strukturasi shakllantirish, o'quvchilarga esa kognitiv bilim va murakkab kontekstlarini tushunish imkonini beruvchi tizimdir. Faqat bu tizim bir martalik bo'lmasligi kerak. S.Z.Kim [2] ta'kidlaganidek, an'anaviy dars usullari, ko'zlangan bilimni o'quvchiga yetkazishda samarali bo'lsa-da, ko'pincha o'quvchilarning faolligini rag'batlantirish yoki avtonom va tanqidiy fikrlashni rag'batlantirishda yetishmaydi. So'nggi tadqiqotlar ushbu cheklovlarni bartaraf etishda ta'lim maqsadlarini loyihalashtirishning keng imkoniyatlarini ta'kidlaydi. D.Merril [3] ga ko'ra, ta'lim maqsadlarini loyihalashtirish o'qituvchi bilan o'quvchini birlashtirib, faol, moslashuvchan va o'quvchilarga yo'naltirilgan muhitni yaratadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bunday integratsiya o'quvchilarning motivatsiyasi, ishtiroki va tahliliy ko'nikmalarini oshiradi, ularga adabiy matnlarni tanqidiy talqin qilish va ijodiy javob berishga imkon beradi. Bir qator olimlar ta'lim maqsadlarini loyihalashtirish jarayonida Bloom taksonomiyasi, SMART maqsadni belgilovchi mezonlaridan foydalanish muhimligini ta'kidlaydilar. B.Bloom[4] ta'kidlaganidek, bu ta'lim maqsadlarini kognitiv murakkablik darajasiga tasniflashga xizmat qiluvchi ilmiy model bo'lib, maqsadlarni aniq belgilash, o'quv faoliyatini rejalashtirish, hamda ta'lim natijalarini baholash uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Vygotskiy [5] qo'shimcha qiladiki, munozara forumlari, fikrlash, muloqot va hamkorlik ustidada bajarilgan loyiha ishlari o'rganishni rag'batlantiradi va shu bilan ta'lim maqsadlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Suningdek, hamkorlikdagi onlayn faoliyatni rivojlantiradi.

Umuman olganda, adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim maqsadlarini loyihalashtirish malakani oshirish uchun samarali asos yaratadi. Bu nafaqat ingliz tili pedagog

xodimlarning tanqidiy va tahliliy qobiliyatlarini rivojlantiradi, balki ularni malakali ingliz tili o'qituvchilari sifatida kasbiy rivojlantiradi. N.Mahkamova [6] an'anaviy va raqamli o'qitish usullarini integratsiyalash haqida aytib o'tganidek, ta'lim maqsadlarini loyihalashtirish zamonaviy ta'lim muammolarini hal qiladi, til o'rganishni talabalar uchun yanada qiziqarli, interaktiv va mazmunli qiladi.

**Tadqiqot metodi.** Mazkur tadqiqot nazariy-tahliliy va konseptual yondashuv asosida olib borildi. Tadqiqot jarayonida pedagogika, didaktika va ta'lim texnologiyalariga oid mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda xalqaro ta'lim konsepsiyalari chuqur tahlil qilindi.

Tadqiqot metodlari quyidagilardan iborat:

- ilmiy-pedagogik manbalarni tahlil qilish va sintezlash;

- ta'lim maqsadlarini loyihalashtirishga oid yondashuvlarni taqqoslash;

- pedagogik jarayonni modellashtirish;

- nazariy umumlashtirish va xulosalar chiqarish.

Shuningdek, ingliz tilini o'qitish jarayonida ta'lim maqsadlarini loyihalashtirish tajribasi amaliy misol sifatida tahlil qilindi.

**Natijalar.** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ta'lim maqsadi pedagogik jarayonning asosiy tarkibiy qismi bo'lib, u o'quvchi tomonidan egallanishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarning rejalashtirilgan ifodasini anglatadi.

Ta'lim maqsadlari jamiyat ehtiyojlari, fan va texnika taraqqiyoti hamda shaxs rivojlanishi bilan uzviy bog'liq holda belgilanadi.

Tahlil natijasida ta'lim maqsadlari mazmuni va qamroviga ko'ra quyidagi guruhlariga ajratildi:

- umumiy va xususiy ta'lim maqsadlari;

- ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar.

Shuningdek, zamonaviy ta'lim sharoitida ta'lim maqsadlarini loyihalashtirishda quyidagi ustuvor mezonlar muhim ekanligi aniqlandi:

- aniqlik va ravshanlik;

- o'lchab bo'ladiganlik;

- erishish mumkinligi;

- izchillik va tizimlilik;

- kompetensiyaviy yo'naltirilganlik.

Muhokama

Ta'lim maqsadlarini loyihalashtirish jarayoni bir martalik emas, balki uzluksiz va tizimli faoliyatni talab etadi.

Ushbu jarayonda jamiyat va mehnat bozori ehtiyojlari hisobga olish, o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini tahlil qilish hamda fan mazmunini kompetensiyalar asosida qayta ko'rib chigish muhim ahamiyatga ega.

Ingliz tilini o'qitish jarayonida aniq loyihalashtirilgan ta'lim maqsadlari o'quvchilarning kommunikativ, lingvistik va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Maqsadlarning aniq ifodalanganligi o'qituvchi faoliyatini tizimlashtiradi, baholash jarayonini shaffof qiladi va o'quvchilarning mustaqil ta'lim olishga bo'lgan masuliyatini oshiradi.

Masofaviy ta'lim, modul tizimi va STEAM yondashuvlari sharoitida ta'lim maqsadlarini loyihalashtirishning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Chunki bunday ta'lim shakllarida natijaga yo'naltirilganlik asosiy ustuvorlik hisoblanadi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, ta'lim maqsadlarini loyihalashtirish pedagogik jarayonning markaziy bo'g'ini

hisoblanadi. Ilmiy asoslangan, aniq va zamonaviy mezonlar asosida belgilangan ta'lim maqsadlari ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirish va ularni kelajak kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim rol o'ynaydi.

Shu bois har bir umumta'lim maktab ingliz tili o'qituvchilari ta'lim maqsadlarini loyihalashtirish bo'yicha

yeterli nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim. Ta'lim maqsadlarini zamonaviy yondashuvlar asosida loyihalashtirish ta'lim samaradorligini ta'minlovchi muhim omil sifatida e'tirof etiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Елена Сергеевна Александрова Педагогическое проектирование как средство ценностного согласования во взаимодействии субъектов образовательного процесса
2. Сегма Зандараевна Ким Педагогическое проектирование предметных образовательных программ в современной школе (Kandidat pedagogik fanlari dissertatsiyasi) (Chita, 2002).
3. Bloom's taxonomy – ta'lim maqsadlarini kognitiv darajalarga ajratish modeli.
4. M. David Merrill "First Principles of instructional design" 2001. (o'quv maqsadlarini tamoyillariga asoslash nazariyasi).
5. Gerlach Ely, Knirk Gustafson "Instructional design models of teaching" 2008 "Ta'lim maqsadlari va dizayn bosqichlari strukturalari". Wikipedia.
6. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.
7. Makhamova, N. (2017). Developing Literary Competence in EFL Learners: Pedagogical Perspectives. Tashkent: Teacher Education Press.
8. Bloom B.S. (Ed.). Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. Handbook I: Cognitive Domain. - New York: Longman, 1956.
9. Yangilangan Bloom taksonomiyasi 2000. Wikipediya.